NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MILLIY AGENTLIGI

TA’LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA

YAKUNIY HISOBOT

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Davlat oliy ta’lim tashkiloti

60721800 – Ishlab chiqarish muhandisligi

Bakalavriat

www.nqaae.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MILLIY AGENTLIGI

60721800 – Ishlab chiqarish muhandisligi

TA’LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA YAKUNIY HISOBOT

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI

	**Rais: PULATOV XAYRULLA LUTPULLAYEVICH** **Toshkent kimyo-texnologiya instituti** **fan doktori (DSc), professor**
	**A’zo: ELVIRA ANVEROVNA GUSEINOVA** **Azerbaijan State Oil and Industry University (Ozarbayjon)** **fan doktori (DSc), professor**

1. UMUMIY MA’LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260112
Xulosa raqami	1514
Xulosa sanasi	20.07.2026
Ta’lim tashkilotining to‘liq nomi	“MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI” DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma’lumotlari	Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur Shox ko‘chasi, 108-uy. Litsenziya: № 10-000825, 20.01.2003. Guvohnoma: MAS № 0000487, 07.08.2026.
Baholangan ta’lim dasturi nomi	Ishlab chiqarish muhandisligi
Yo‘nalish / mutaxassislik kodi	60721800
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O‘rta maxsus, kasbiy, oliy ta’limni va oliy ta’limdan keyingi ta’limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA’LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta’lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: *License/Certificate of Educational Institution:*	№ 10-000825, 20.01.2003
2. Ta’lim tashkilotining turi: *Type of Educational Institution:*	Davlat oliy ta’lim tashkiloti
3. Ta’lim dasturi kodi va nomi: *Code and Name of Study Programme:*	60721800 – Ishlab chiqarish muhandisligi
4. Ta’lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: *Name of Study Programme in English:*	60721800 – Manufacturing Engineering
5. Ta’lim dasturining rus tilida nomlanishi: *Name of Study Programme in Russian:*	60721800 – Производственная инженерия
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: *Offered in Cooperation with:*	—
7. Ta’lim tili: *Medium of Instruction:*	o‘zbek / rus
8. Ta’lim shakli: *Mode of Study:*	kunduzgi
9. Ta’lim dasturi hajmi: *Study Programme Credits:*	240 kredit
10. Ta’lim dasturi davomiyligi: *Duration of Study Programme:*	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: *Level in National Qualifications Framework:*	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: *Qualification Title:*	Ishlab chiqarish texnologi, muhandis
13. Qo‘shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: *Additional Qualifications Awarded:*	—
14. Ta’lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: *Type of Document Issued Upon Completion:*	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta’lim oluvchilarning me’yoriy miqdori (to‘liq davr): *Maximum Number of Students (full period):*	200 nafar
16. Ta’lim dasturini o‘qitish manzili: *Address Where the Study Programme is Delivered:*	Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur Shox ko‘chasi, 108-uy

4. BAHOLASH YO‘NALISHLARI VA MEZONLAR BO‘YICHA NATIJALAR

Har bir yo‘nalish bo‘yicha baho (muvofiq / muvofiq emas) va har bir mezon bo‘yicha baho (muvofiq / qisman muvofiq / muvofiq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	**Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta’minlash**	**Muvofiq**
1.1.	*ta’lim dasturini amalga oshirish bo‘yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;**	Muvofiq
1.2.	*ta’lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;*	Muvofiq
1.3.	*ta’lim dasturi doirasida sifatni ichki ta’minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta’minlangani;*	Muvofiq
1.4.	*mehnat bozori va ta’lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so‘nggi tendensiyalarini aniqlash bo‘yicha monitoring tizimining mavjudligi;*	Muvofiq
2.	**Ta’lim dasturlari**	**Muvofiq**
2.1.	*manfaatdor tomonlar ishtirokida ta’lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta’lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta’lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;**	Muvofiq
2.2.	*ta’lim dasturining milliy ta’lim tizimidagi ustuvor yo‘nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;*	Muvofiq
2.3.	*ta’lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta’minlangani;*	Muvofiq
3.	**O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quv natijalarini baholash**	**Muvofiq**
3.1.	*ishchi o‘quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;**	Muvofiq
3.2.	*o‘quv jarayonining ta’lim dasturida belgilangan o‘quv natijalariga erishishga yo‘naltirilgani;**	Muvofiq
3.3.	*o‘quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;*	Muvofiq
3.5.	*ta’lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o‘quv natijalariga muvofiqligi;*	Muvofiq
3.6.	*talabalarning baholash natijalari bo‘yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;*	Muvofiq
3.7.	*ta’lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo‘yicha samarali tizimning mavjudligi;**	Muvofiq

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	**Talabalar faoliyati**	**Muvofiq**
4.1.	*ta’lim dasturi bo‘yicha qabul talablari aniq belgilangani, o‘qishga qabul qilish shaffof tarzda yo‘lga qo‘yilgani;*	Muvofiq
4.2.	*qabul parametrlarining ta’lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;**	Muvofiq
4.3.	*talabalarning o‘qishini ko‘chirish, kursdan-kursga o‘tkazish (qoldirish), o‘qishdan chetlashtirish va o‘qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;**	Muvofiq
4.4.	*talabalarni qo‘llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;*	Muvofiq
5.	**Inson resurslari**	**Muvofiq**
5.1.	*ta’lim dasturi uchun belgilangan me’yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;**	Muvofiq
5.3.	*yangi ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta’minlash bo‘yicha aniq rejaning mavjudligi;**	Muvofiq
5.4.	*kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimining mavjudligi;*	Muvofiq
6.	**Moddiy-texnik ta’minot**	**Muvofiq**
6.1.	*ta’lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo‘llanma (ko‘rsatma)lar bilan ta’minlangani;**	Muvofiq
6.2.	*fanlar kesimida o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlar, elektron ta’lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta’minlangani;**	Muvofiq
6.3.	*o‘quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta’lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;**	Muvofiq
6.4.	*inklyuziv ta’lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o‘quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;*	Muvofiq
6.5.	*axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta’lim dasturlariga mos o‘quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta’minlangani, o‘quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;**	Muvofiq

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	*raqamli ta’lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta’lim imkoniyatlari);*	Muvofiq
6.7.	*ta’lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.*	Muvofiq

5. BAHOLASH YO‘NALISHLARI (BOB) BO‘YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta’minlash yo‘nalishi

Ta’lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv tizimi amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar va universitetning ichki tartib-qoidalari asosida shakllantirilgan. Boshqaruv organlari va mas’ul tarkibiy bo‘linmalarning vazifalari, vakolatlari hamda o‘zaro hamkorlik va hisobdorlik mexanizmlari aniq belgilangan. Ichki sifatni ta’minlash tizimi doirasida ta’lim jarayonini muntazam monitoring qilish, natijalarni baholash, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Professor-o‘qituvchilar, talabalar, bitiruvchilar va ish beruvchilarning fikr-mulohazalarini o‘rganish, so‘rovnomalar natijalarini kengash yig‘ilishlarida muhokama qilish hamda ulardan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish amaliyoti shakllantirilgan. Mazkur jarayonlar ta’lim dasturining sifatini muntazam takomillashtirish va manfaatdor tomonlar ehtiyojlariga mosligini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Umuman olganda, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ichki sifatni ta’minlash mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga muvofiq deb baholandi.

2-bob. Ta’lim dasturlari yo‘nalishi

Ta’lim dasturining maqsadlari, mazmuni, o‘quv rejasi, kadrlar salohiyati va amaliy tayyorgarlikni tashkil etish holati kompleks o‘rganilib, uning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi zamonaviy rivojlanish tendensiyalari hamda mehnat bozori ehtiyojlariga mosligi tasdiqlangan. Dastur mazmunida fundamental nazariy bilimlarni shakllantirish bilan birga talabalarning kasbiy, amaliy, tahliliy va loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Muhandislik fanlarining amaliy mashg‘ulotlar va loyihaviy faoliyat bilan uyg‘unlashtirilishi orqali talabalarning texnik masalalarni mustaqil hal etish, ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish va zamonaviy texnologik yechimlarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutilgan. O‘quv rejasining mazmuni va

fanlararo uzviylik kasbiy tayyorgarlik talablariga muvofiq tashkil etilgan. Umuman olganda, ta’lim dasturining mazmuni, maqsadlari va kutilayotgan natijalari belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga muvofiq deb baholandi.

3-bob. O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quv natijalarini baholash yo‘nalishi

O‘quv jarayonini rejalashtirish, dars jadvallarini shakllantirish, auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’limning o‘zaro uyg‘unligi hamda talabalar bilimini baholash tartiblari kompleks o‘rganilgan. Ta’lim jarayoni tasdiqlangan o‘quv rejalari, fan dasturlari va akademik taqvim asosida tizimli va izchil tashkil etilgan. Mashg‘ulotlarning hajmi, mazmuni va ketma-ketligi fanlarning xususiyatlari hamda kutilayotgan ta’lim natijalariga mos ravishda belgilangan. Dars jadvallari auditoriya fondidan oqilona foydalanish, professor-o‘qituvchilar yuklamasini samarali taqsimlash va o‘quv jarayonining uzluksizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Talabalarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va kasbiy kompetensiyalarini baholash tartiblari belgilangan mezonlar asosida tashkil etilgan bo‘lib, ularning izchil qo‘llanilishi orqali baholashning shaffofligi va xolisligini ta’minlash nazarda tutilgan. Umuman olganda, o‘quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va baholash mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga muvofiq deb baholandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo‘nalishi

Talabalarning sifatli ta’lim olishi, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishi va shaxsiy rivojlanishi uchun zarur tashkiliy hamda akademik sharoitlar yaratilgan. O‘quv jarayonining tashkil etilishi, baholash mezonlari, talabalarning huquq va majburiyatlari yuzasidan muntazam axborot berish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Iqtidorli talabalarni fan olimpiadalari, kasbiy tanlovlar, ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsion loyihalarga jalb etish orqali ularning ilmiy salohiyati hamda amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ta’minlangan. Talabalarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, fikr-mulohazalarini o‘rganish va olingan natijalardan ta’lim sifatini takomillashtirishda foydalanish tartiblari shakllantirilgan. Shuningdek, bitiruvchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvi va bandligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlar mavjud bo‘lib, ular orqali ta’lim jarayonining mehnat bozori ehtiyojlari bilan bog‘liqligi mustahkamlangan. Umuman olganda, talabalar faoliyatini tashkil etish, ularni akademik va kasbiy qo‘llab-quvvatlash hamda manfaatlarini ta’minlash mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya talablari va sifat mezonlariga muvofiq deb baholandi.

5-bob. Inson resurslari yo‘nalishi

Ta’lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan inson resurslarini shakllantirish, rivojlantirish va ulardan oqilona foydalanish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Professor-o‘qituvchilarni ishga qabul qilish jarayonlari ularning ma’lumoti, kasbiy malakasi, ilmiy-pedagogik salohiyati va amaliy tajribasini inobatga olgan holda tashkil etilgan. Kadrlar tarkibining ta’lim dasturi mazmuni, fanlar xususiyati va belgilangan o‘quv yuklamalariga muvofiqligi ta’minlangan. Pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, malakasini oshirish, stajirovkalarda qatnashish hamda ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarda ishtirok etishi uchun tegishli imkoniyatlar yaratilgan. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy, pedagogik va amaliy faoliyatini rag‘batlantirish mexanizmlari shakllantirilgan. Ishlab chiqarish sohasida amaliy tajribaga ega pedagog kadrlar salohiyatidan foydalanish orqali nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish va talabalarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga e’tibor qaratilgan. Umuman olganda, inson resurslari bilan ta’minlanganlik, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga muvofiq deb baholandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta’minot yo‘nalishi

Ta’lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik infratuzilma va axborot-resurs bazasi shakllantirilgan. O‘quv auditoriyalari, laboratoriyalar, kompyuter xonalari, Axborot-resurs markazi va boshqa infratuzilma obyektlari dastur mazmuni hamda talabalar ehtiyojlariga muvofiq tashkil etilgan. O‘quv jarayonida zamonaviy kompyuter texnikasi, ixtisoslashtirilgan dasturiy vositalar, multimedia texnologiyalari va elektron ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan. Ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish vositalari va laboratoriya jihozlaridan foydalanish orqali talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, texnologik jarayonlarni tahlil qilish va muhandislik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun tegishli sharoitlar ta’minlangan. O‘quv binolari va laboratoriyalarda sanitariya-gigiyena, mehnat muhofazasi hamda yong‘in xavfsizligi talablariga rioya etilishi yo‘lga qo‘yilgan. Mavjud texnik va axborot resurslari o‘quv jarayonining uzluksizligini ta’minlash hamda talabalarning mustaqil ta’lim olishi va amaliy tayyorgarligini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Umuman olganda, moddiy-texnik baza, laboratoriya infratuzilmasi va axborot-resurs ta’minoti belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga muvofiq deb baholandi.

6. BAHOLASH YO‘NALISHLARI (BOB) BO‘YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to‘sqinlik qiluvchi):

Ta’lim dasturini yo‘lga qo‘yish uchun to‘sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo‘lgan juz’iy kamchiliklar:

- ✓Ishlab chiqarish korxonalari bilan amaliyot shartnomalari tarmog‘ini kengaytirish va dual ta’lim elementlarini rivojlantirish zarurati mavjud.
- ✓Yo‘nalish bo‘yicha zamonaviy xorijiy adabiyotlar va xalqaro muhandislik bazalaridan foydalanish ulushini oshirish lozim.
- ✓Monitoring natijalari va manfaatdor tomonlar takliflarining o‘quv hujjatlariga kiritilishini hujjatlashtirishni kuchaytirish kerak.

7. TA’LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

- ✓Ishlab chiqarish korxonalari bilan amaliyot shartnomalarini kengaytirib, dual ta’lim elementlarini joriy etish.
- ✓ARM fondini ishlab chiqarish muhandisligi bo‘yicha zamonaviy xorijiy manbalar bilan boyitish.
- ✓Yosh pedagoglarni ilmiy-tadqiqotga jalb etish va sanoat stajirovkalarini kengaytirish.
- ✓Takliflarning o‘quv hujjatlariga kiritilishini bayonnomalar bilan tizimli hujjatlashtirish.

8. TA’LIM DASTURI BO‘YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko‘ra, 60721800 – “Ishlab chiqarish muhandisligi” bakalavriat ta’lim dasturi bo‘yicha taqdim etilgan hujjatlar, o‘quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, professor-o‘qituvchilar salohiyati hamda moddiy-texnik va axborot-resurs bazasi kompleks tahlil qilindi. O‘rganish natijasida ta’lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta’minlash mexanizmlari amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida shakllantirilgani, dastur mazmuni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari hamda mehnat bozori ehtiyojlariga mos ishlab chiqilgani aniqlandi. O‘quv jarayoni tasdiqlangan o‘quv rejalari, fan dasturlari va akademik taqvim asosida izchil tashkil etilgan, nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar va loyihaviy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Talabalarning akademik, kasbiy va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun tegishli sharoitlar yaratilgan, ularning ilmiy-innovatsion faoliyatda

ishtiroki va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ta’minlangan. Professor-o‘qituvchilar tarkibi dastur mazmuni va o‘quv yuklamalariga mos shakllantirilgan, pedagoglarning malakasini oshirish hamda ilmiy-amaliy faoliyatini rag‘batlantirish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, mavjud o‘quv auditoriyalari, laboratoriyalar, kompyuter xonalari va zamonaviy raqamli infratuzilma ta’lim jarayonini samarali tashkil etish hamda talabalarning amaliy tayyorgarligini ta’minlash uchun zarur imkoniyatlarni yaratgan. Kompleks baholash yakunlariga ko‘ra, oltita yo‘nalish doirasida ko‘rib chiqilgan 27 ta mezonning barchasi akkreditatsiya talablariga muvofiq deb topildi. Bildirilgan tavsiyalar ta’lim dasturini amalga oshirishga to‘sqinlik qilmaydigan, uning mazmuni, tashkiliy jarayonlari va mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan rivojlantiruvchi xarakterga ega. Umuman olganda, ta’lim dasturining tashkiliy-boshqaruv, akademik, ilmiy-pedagogik va moddiy-texnik jihatdan ta’minlanganligi hamda barcha baholash mezonlari bo‘yicha ijobiy natijalar qayd etilgani inobatga olinib, ta’lim dasturi belgilangan akkreditatsiya talablariga MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA’LIM DASTURI BO‘YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	03.08.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	6-son
Yakuniy qaror:	**AKKREDITATSIYADAN O‘TDI**

Guvohnoma (MAS № 0000487) haqiqiyligini NQAAE davlat akkreditatsiyasi reyestrida tekshirish uchun QR kod

NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

+998 55 505 30 30

info@nqaae.uz
www.nqaae.uz

@nqaaeuz

@nqaaeuzbot